

UCHINCHI RENESSANS: TA'LIM,TARBIYA VA PEDOGOGIKA

Abdurahmonova Mohinur Bahromjon qizi

*Namangan viloyati Pop tumani
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida Renassansning o'rni, O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishda ta'lif islohotlariga bog'lig'ligini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: yangi taraqqiyot, Uyg'onish davri, Renessans, milliy g'oya, murojaat, muallim, o'qituvchi, tarbiyachi, ziyoli, milliy davlatchilik.

Prezidentimiz ning nutqlaridan birida ularga javob bo'ladigan quyidagi muhim da'vatkor fikr bildirildi: “Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”. Darhaqiqat, ajdodlarimiz yaratgan Renessanslarning siri o'sha davrda yaratilgan muhit va sharoitlar bilan bog'liq edi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda IX–XII asrlar Uyg'onish (Renessans) davri madaniyati shakllanib, ravnaq topgan davr sifatida tarix sahnasidan joy oldi. Albatta, bunday atalishning o'ziga xos sabab va ko'rinishlari bor edi. Renessans frantsuzcha so'z bo'lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq ma'nosini anglatadi, madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lif-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lif sifatini oshirish, ta'lif-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlari amalga oshirilmoqda. Demak, ta'lif sohosiga oid barcha shaxslar mazkur Nutqda qo'yilgan yangi vazifalar ijrosida faol ishtirok etish zurratdir. Shu sababli quyidagilar e'tibor qaratish kerak:

- a) Renessans - ilm, fan va barcha sohlarda Uyg'onish (yangilanish, yaratish, ixtiro qilish, kashfiyot va farovonlikni) tarkib toptirish;
- b) Uchinchi Renessans - birinchi Renessans yurtimizda IX - XII asrlarda, ikkinchi Renessans XIV - XV asrlarda kechgan va uchinchi Renessansni barpo etilishi kerak;
- v) Ta'lif sohasi - barpo etiladigan uchinchi Renessansning poydevori bo'ladi.

O'zbekistor Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Renessans, ya'ni Uyg'onish davrlarini e'lon qilar ekan, jadid ma'rifatparlari tomonidan 1900 - 1920 yillarda tamal toshi qo'yilgan Uchinchi Renessans davrini davom ettirish va yakunlash vazifasini qo'ydi.[1] Bunda "Renassans" lotincha so'z bo'lib, "uyg'onish", "qayta oyoqqa turish", "milliy va xalqaro miqyosda rivojlanish" ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan Renessans tushunchasini quyidagicha idrok etish kerak:

- Milliy davlatchilikni rivojlantirish
- Ilm - fan va texnologiya rivojiga erishish
- Moddiy farovonlikning milliy shaklini ta'sis etish

Bunday yondoshuv asosida keyingi ikki ming yillik O'zbekiston tarixida Birinchi Renessans IX-XII asrlarda kechganligi e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deydi: "Antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinch -o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi". Bu o'rinda ikki masalaga e'tibor berish lozim: 1) "Antik davr Yunonistoni" degandi Suqrot, Aflatun, Arastu kabilar boshliq global meros nazarda tutiladi; 2) "Markaziy Osiyo hududi" deganda esa qadimgi Vatandoshlarimiz Movarounnaxr va Xuroson hududlari e'tiborga olinmoqda. Bu tushunchalar bo'lajak pedagoglar tomonidan aniq idrok etib olinishi lozim.

Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ro'y berdi. Bu davrda davlatni boshqarish siyosati, er-suv, soliqlar bilan bog'liq farmonlar chiqarilishi, olimlarga munosabat kishilarda ertangi kunga ishonch uyg'otdi. Ularning turli fan sohalari (matematika, astronomiya, tibbiyat, huquq, kimyo, geodeziya va dunyoning tuzilishi haqidagi ilmlar)ga qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi. Mintaqamizda Ikkinci Renessans poydevori Amir Temur nomi bilan bog'liq. Sohibqiron bobomiz Ikkinci Renessans homiysi, asoschisi sifatida tarixga muhrlandi. Amir Temur markaziy boshqaruvga asoslangan qudratli sultanatni barpo etish bilan birga, mamlakatda madaniy-ilmiy yuksalish uchun ham munosib sharoit yaratishga intildi. Turli hududlardan diniy va dunyoviy ilm sohiblari, shoirlar, me'morlar, hunarmandlar va boshqalarni yig'ib, ular orqali mamlakatning ilmiy va madaniy qudrati yuksalishiga zamin yarattdi. CHingizzon davrida inqirozga uchragan madaniyat, ilm-fan, ma'rifat qayta shakllandi va taraqqiy etdi. Mamlakat obodlik va farovonlikka erishdi.

Ikkinci Renessans davri, o'z navbatida, "Islom madaniyatining oltin asri" deya nomlandi. Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, SHarafiddin Ali YAzdiy, Xondamir va boshqa olimlar, shoiru fuzalolar bu yurtning shuhratini dunyoga yoydi. Bu ikki Renessans insoniyatga nimalarni tuhfa qildi? Butun dunyoga "Bayt ul-hikma", Xorazm Ma'mun akademiyasi kabi ilm dargohlarini taqdim qildi. Erning sharsimon ekani haqidagi g'oya ilgari surildi, globus yaratildi. Er radiusi ilm bilan isbotlandi.

Tibbiyotning, algebra fanining tamal toshi qo'yildi. SHaharsozlik, me'morlik sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar dunyo ahlini lol qoldirdi. Birinchi Renessansda islom tsivilizatsiyasining tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, Ikkinci Renessansda yanada yuksalishiga yo'l ochildi e'tibor bersak, har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lgan. Bundan tashqari, insonlarda yuksak axloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchli bo'lgan. Olimlar o'zлari bilmagan holda, bugun tarixchilar e'tirof etayotgan Renessans davrining ijrochilariga aylangan.

Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olimu fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, iymon-e'tiqodi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Deyarli barcha allomalar asarlarida ta'limni tarbiya bilan uyg'un olib borish lozimligi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida ilm va odob-axloq uyg'unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o'zaro do'stligi va hamkorligi, obod turmush to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir “Bola badanining bo'g'inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog'i eshitish va gapni ma'qullash uchun tayyor bo'lib, vujudi ilm va odob o'rganishga hozir bo'lganda unga ilm va odob o'rgatish kerak”, deb yozadi. Bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas. Ha, haqiqatan ham, shunday: bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Sal oldingi tarixga nazar tashlaylik. XIX asrning ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizdan ajraldik. Jadidlar qatag'on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg'unlik davri boshlandi. CHunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilar edi. Hech kim o'z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning, esa, boshiga kulfat yog'ilari edi. Ushbu siyo sat tufayli qanchadanqancha olimlar, shoiru yozuvchilarimiz “tug'ildiyu, bo'g'ildi”.

SHukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko'tarilish, kelajakka ishonch paydo bo'la boshladi. Bu holat “milliy tiklanish”, deya nom oldi. Bugungi kunda esa, milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga o'tdik. endi, albatta, qandaydir o'zgarish bo'lishi lozim. CHunki biz ikkita Renessansni yaratgan buyuk ajdodlarning vorislارimiz. Buni Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev Uchinchi Renessansga qadam qo'yish bosqichi, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichi, deb nomlab, quyidagicha ta'rifladi: “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. CHunki bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Iymonli insonlar Uchinchi Renessans ijodkorlari hisoblanadi. Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun mamlakatning har bir vakili — xoh yosh bo'lsin, xoh katta — barcha barobar harakat qilmog'i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Bu ham oson kechadigan jarayon emas. CHunki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun dastlab ma'naviyatli insonlar qatlamini shakllantirish kerak. Bunday insonlarda tafakkur hissiy ongdan ustun keladi, inson o'zini o'zi idora qila oladi. Ma'naviyat insonni ongli yashash va olijanob xislatlarga chorlaydigan noyob faoliyatdir. Uni yuksaltirish masalasi esa, ko'proq insonning o'ziga va unga ta'sir o'tkazadigan muhitga bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ - 637 sonli Qonuni.2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan so'zlagan nutqi.2020 yil 30 sentabr.
3. Qurbanova, M. F. (2020). Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works. Экономика и социум, 8, 432-437.
4. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. Халъ таълими, 3.
5. Эшманова, Н. Н., & Матьякубова, М. Б. (2019). Тарбиячиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш. Таълимдаги инновациялар ва ислоутлар контекстида замонавий кластер тизими:муаммолар, ёндашувлар ва истицболлар, 1, 33-34.